Volume 2, Issue 2,2024

O'ZBEK TILINI CHET TILI SIFATIDA O'QITISHDA AUDIOVIZUAL MATERIALLARDAN FOYDALANISH

Keldiboyeva Parizoda Orif qizi
Payariq tumani 1-son Kasb hunar maktabi o'quvchisi

Annotatsiya: O'zbek tilini chet tili sifatida o'rgatishda audiovizual materiallardan foydalanish an'anaviy ma'ruza uslubidan chiqib, interaktiv usulda dars o'tish metodlarini qo'llashni taqozo etadi. Bu esa bugungi kunda xorijiy tillarni o'rganishda eng oson va samarali usullardan sanaladi. Bu yondashuv o'quvchilarning bilim olish jarayonini soddalashtirish bilan bir qatorda, ularga qiziqarli mashg'ulot ham bo'la oladi. Bu esa o'zbek tilini chet tili sifatida o'qitishda tasvirni haqiqiy o'zbek talaffuzi orqali o'rganib sinxron tarjima qilish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: O'zbek tili, audiovizual materiallar, yangilik dasturlari, maqolalar, podkastlar, til o'tganish ko'nikmalari.

Keyingi yillarda O'zbekistonning xalqaro hamkorlik aloqalari kengayib, xalqaro maydonda obro'-e'tibori tobora yuksalib borayotgani uchun dunyo xalqlarining o'zbek tiliga bo'lgan qiziqishlari ham ortib bormoqda. Jahonning qator nufuzli oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili xorijiy til sifatida o'qitish yo'lga qo'yilgan. Jumladan, o'zbek tili Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Shvetsiya, Rossiya, Ukraina, Xitoy, Yaponiya,JanubiyKoreya, Hindiston, Turkiya, Afg'oniston, Ozarbayjon, Tojikiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston kabi davlatlarning 60 ga yaqin universiteti va 100 dan ziyod maktabida o'rganilmoqda. O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan chet ellik olimva tadqiqotchilar soni yil sayin ko'paymoqda. Natijada, o'zbek tili chet tili sifatida o'qitiladigan xorijlik talabalarga o'zbek tilida sifatli ta'lim berish, ularning o'zbek tilini tez va oson o'zlashtirishlarini ta'minlash maqsadida o'zbek tilida ilmiy metodik bazani shakllantirish va uni boyitish zaruriyati paydo bo'lmoqda. Bu esa ayni vaqtda o'zbek tilini o'qitishdagi ustuvor masalalardan biriga aylandi va metodik ta'minot –kontentlarni yaratishni shart qilib qo'ydi. Biz yangi o'ta rivojlangan texnologiyalar dunyosida yashayapmiz. Bugungi kunda sun'iy aqlga ega turli-uman yangidan yangi qurilmalar, texnik vositalar yaratilmoqda. Ular nafaqat ishlab chiqarishga, balki xonadonlarimizga, hatto zamonaviy ta'lim tizimiga ham jadallik bilan kirib kelmoqda. Ta'limning boshqaruv tizimi, ta'lim jarayonlari to'liq avtomatlashtirilmoqda – o'qitishning yaxlit elektron tizimi yaratilmoqda. Dunyo ta'lim tizmida zamonaviy texnika va texnologiyalar yordamida audio-video va media-axborot mahsulotlarini yaratish va ulardan samarali foydalangan holda til o'rgatish ham allaqachon kafolatli ta'limning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Darslarda audio-video va media-axborot materiallardan foydalanish ta'limda audiovizual metod deb ham yuritiladi. Audiovizual (murakkab tarkibli) metod ta'limning audiovizual vositalari (diafilmlar, o'quv filmlari, kinofilmlar, animatsion filmlar, videoroliklar, slaydlar, kliplar)dan va texnik vositalar (radio, televideniye va axborotning elektron vositalari: kompyuter, planshet va smartfonlar)dan keng foydalanishni nazarda tutadi. Audiovizual materiallardan til o'rgatish darslarining istalgan bosqichlarida, nutqiy faoliyatning barcha turlarini shakllantirishda, ayniqsa, nutqni eshitib tushunish va gapirishga o'rgatishda muvaffaqiyatli foydalanish mumkin. Shunisi xarakterliki, darslarda qo'llanadigan audiovizual materiallar, xususan, videolar tilni jonlikontekstda taqdim eta oladi. Darsni real dunyo bilan bog'lay oladi va tilni harakatdagi muloqot vaziyati bilan ko'rsatadi. Bu esa talabalarning arsenalida mavjud bo'lgan til materiallarini boyitishga xizmat qiladi. Video materiallar talabalarga nafaqat ona tilida so'zlashuvchilarning jonli nutqini taqdim

etadi, balki ular muloqotga kirishgan til egalarining imo-ishoralarini va yuz ifodalarini ko‘radi, xullas, til o‘rganuvchilarni o‘rganilayotgan til vaziyatiga olib
kiradi. Shuningdek, videolar til o‘rganishdagi madaniy to‘siqlarni yengib o‘tishga yordam beradi. Yaratilajak darsda qo‘llanishi nazarda tutiladigan audio-video va media-axborot materiallar o‘tilishi rejalashtirilgan darslarning mavzusi va mazmuniga mos kelishi, ulardan tizimli va oqilona foydalanish texnikasini ishlab chiqish o‘ta muhimdir. Shundagina ular darsning uzviy mazmuniy qismiga aylanadi va ularning samaradorligi yanada oshadi. Shuningdek, audiovizual materiallarning samarasi til o‘rganuvchi o'quvchilarning kommunikativ madaniyati va intellektual salohiyati qay darajada shakllantirilganiga ham qarab belgilanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, odamlar mavhum va yangi tushunchalarni og'zaki va vizual shaklda taqdim etilganda osonroq o'rganadilar. Boshqa tadqiqotlarga ko'ra, vizual axborot vositasi odamlarga matnli axborot vositalariga qaraganda tushunarli bo'ladi va keyinchalik eslashga yordam beradi. 2009-yilda o'tkazilgan Willingham tadqiqotida u o'z fikrini bildirish uchun oddiy savolni so'raydi: "Nega talabalar televideniyedagi hamma narsani eslashadi va biz o'rgatgan narsalarni unutishadi?" "Chunki vizual media o'quvchilarga tushuncha va g'oyalarni saqlab qolishga yordam beradi",. - deb javob beradi amerikalik tadqiqotchi Willingham. Shuningdek, filmlar, hujjatli filmlar, teleko'rsatuvlar va musiqa kabi bir tomonlama aloqa vositalarining imkoniyatlarini kengaytiradigan o'quv muhitini yaratish uchun texnologiyaning hal qiluvchi rolini qayd etadi. Audiovizual materiallardan nutqning to’rtala ko’nikma shakllarida ham foydalanish mumkin. Buning uchun me’yor va yosh-xususiyatlarini chegaralab, bilim darajasini ham aniqlab olish muhimdir. Masalan, biz boshlang’ich sinf yoshidagi o’quvchilarga siyosiy yangiliklar haqidagi videoni qo’yib ko’rsatolmaymiz. Shuningdek, universitet talabasini ham bolalar uchun mo’ljallangan kichik ko’rsatuvlarni tomosha qilishga majburlay olmaymiz. Shunday ekan, har bir audio-vizual materialni taqdim etishdan oldin uni kimga namoyish etmoqchi va qanday uslubda yetkazmoqchi ekanligimizni belgilab olishimiz lozim. Tinglab tushunish (Listening skill) ko’nikmasini rivojlantirish uchun biz o'quvchilar bilan audio materiallar, jumladan radioeshittirishlardan, turli mavzulardagi podkastlar, estrada qo’shiqlari, monolog va dialoglardan foydalanishimiz mumkin. Bunda ular eshitish orqali raqamlarni, joy nomlarini, ismlarni, soat vaqtlarini topishlari yoki bo’sh kataklarni, tushirib qoldirilgan so'zlar bilan gaplarni to'ldirishlari kerak bo'ladi. Ushbu vazifalar til o’rganuvchilarning eshitib tushunish qobiliyatini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning nutqiy ko’nikmasi, ya’ni so’zlashuv mahoratini ham oshirishga xizmat qiladi. O'zbek tilida taqdim etiladigan matnlar orqali biz xorijliklarda o’qish mahorati (reading skill) ni oshirishimiz, bunda ham media manbalaridan foydalanishimiz mumkin. Jumladan, o’zbek tilidagi gazeta va jurnallar, masalan, “Xalq so’zi”, “Hurriyat” kabi qator bosma nashrlarda berilayotgan, xabar, yangilik va maqolalarni o'qish, tahlil va tahrir qilish orqali til o‘rganuvchilarning ham o'qish mahorati ortadi,ham o’zbek tilida fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Yozish mahorati (writing skill) ni oshirishda ham biz media mahsulotlariga tayansak bo'ladi. O’quvchilarga turli kichik sahna asarlari uchun ssenariy tayyorlashni yoki gazeta uchun ularning o'zlari maqola, xabar yoki yangiliklarni o’zbek tilida o'zlari yozishlari haqida topshiriq berish mumkin. Bundan tashqari, o’zbek tilidagi bir qancha bosma nashrlarni o’qib, tushungan mazmuni bo’yicha kichik bayon yozishni topshirish ham yozuv ko’nikmasini rivojlantirishda samara li bo’ladi. Internet nashrlari, ijtimoiy tarmoqlar haqida ham xuddi shunday fikr yuritsak to’g’ri bo’ladi. Xorijlik o’quvchilar bajonidil YouTube tarmog’ida o’z videolarini, boshqa ijtimoiy tarmoq va messenjerlarga ma’lumotlar joylashlari va bir-birlarining virtual sahifalariga shaxsiy munosabatlarini yozishlari mumkin. Bu esa albatta ularning yozuv ko’nikmasiniyanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Birgina talab, yo’naltiruvchi o’qituvchi til o’rganuvchilarga har bir fikrni badiiylashtirilgan me’yorlar asosida yozishlarinita’kilashi lozim. Gapirish mahoratini rivojlantirishda ham medianing barcha turlaridan bemalol foydalanish mumkin. Misol uchun, filmlarni shunchaki tomosha qilish emas, balki, o‘zlarini aktyor va aktrisalardek tutishlari,

shuningdek, ular kabi rol ijro etib, ularning aksentini o'zlashtirgan holda faollarni qaytarishlari kerak bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, ommabop audio-vizual materiallar (filmlar, musiqa, YouTube) til o'rganuvchi har bir shaxs uchun tanish vosita bo'lib, ular e'tiborni jalb qilishga va muhokama qilinayotgan nazariyalar va tushunchalarga o'quvchilarning qiziqishini saqlab qolishga yordam beradi. Chunki ular nazariya va tushunchalarni amalda ko'rishlari mumkin. Majoziy ma'noda, nazariya va tushunchalar ekrandan sakrab chiqadi. O'quvchilar o'zlari o'rganayotgan nazariyalar va kontseptsiyalar yordamida vositalarni tahlil qilib, analitik ko'nikmalarini oshirishi mumkin. Darsda ommaviy axborot vositalaridan foydalanish o'quvchilarga televizor ko'rayotganda, musiqa tinglashda yoki do'stlari bilan kinoda bo'lganida tushunchalar va yangi misollarni ko'rish imkonini beradi. Shu boisdan ham, o'zbek tilining chet tili sifatida o'qitilishida ommaviy axborot vositalari materiallaridan foydalanish eng samaraliusullardan biri hisoblanadi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tolipov M., Xudoyberganov Sh., Abduqodirov R. Hozirgi zamon darsining didaktikuslubiy masalalari. Toshkent, "Tafakkur", 1998 yil.
2. Yangi pedagogik texnologiyalarning yo'nalishlari, muammolari va yechimlari.Toshkent, 1999 yil.
3. B.To'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent,2006 yil